

ZAMONAVIY TIL O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI: IMKONIYATLAR VA AMALIY TAJRIBA

Sultonova Kamola Bahrom qizi
O'zDJTU "Sharq filologiyasi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy til o'rganish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida AI vositalarining til kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari va ularning amalda qo'llanilishi. Qolaversa sun'iy intellektlar talabalarning til o'rganish ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga, shuningdek zamonaviy o'quv muhitini yaratishga katta hissa qo'shadi. Bu bilan birga, AI texnologiyalarining samaradorligi, ularning bazi cheklovlari va noqulay tomonlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til kompetensiyasi, til o'rganish, raqamli ta'lim, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль технологий искусственного интеллекта в процессе современного изучения языков. В исследовании анализируется потенциал инструментов ИИ для развития языковой компетенции и их практическое применение. Кроме того, технологии искусственного интеллекта вносят значительный вклад в самостоятельное развитие языковых навыков студентов, а также в создание современной учебной среды. Вместе с тем анализируется эффективность технологий ИИ, а также их определенные ограничения и недостатки.

Ключевые слова: искусственный интеллект, языковая компетенция, изучение языков, цифровое образование, инновационные технологии.

Abstract. This article examines the role of artificial intelligence technologies in the modern language learning process. The study analyzes the potential of AI tools for developing language competence and their practical application. Furthermore, artificial intelligence technologies contribute significantly to the independent development of students' language learning skills, as well as to the creation of a modern learning environment. At the same time, the effectiveness of AI technologies, as well as their limitations.

Keywords: artificial intelligence, language competence, language learning, digital education, innovative technologies and drawbacks.

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat mamlakatimiz rivojini balki uning ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan sun'iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi til o'rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda til o'rganish faqatgina an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolmay, balki raqamli platformalar, mobil ilovalar va interaktiv tizimlar orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, sun'iy intellekt asosida yaratilgan vositalar biz o'quvchilarning individual xususiyatlarimizni hisobga olgan holda biror bir tilni yanada chuqurroq, qulayroq o'rganishga va rivojlantirishga katta hissasini qo'shib kelmoqda va bizga yanada ko'proq imkon yaratib bermoqda.

Asosiy qism. Sun'iy intellekt til ta'limida o'nlab yillardan buyon mavjud (Heift & Schulze, 2007). Biroq, generativ sun'iy intellekt (GenAI) vositalarining, masalan, ChatGPT'ning keskin rivojlanishi AI imkoniyatlarini bevosita o'qituvchilar, o'quvchilar va tadqiqotchilar qo'liga berdi hamda amaliy tilshunoslikda AI qo'llanilishining kengayishiga olib keldi (Chapelle va boshqalar, 2024).* Sun'iy intellekt bu kompyuter tizimlarining inson aqliga xos bo'lgan funksiyalarini, jumladan o'rganish, fikirlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini taqlid qilishdir. Bugungi kunda sun'iy intellekt turli sohalarda keng qo'llanilmoqda va albatta ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Til kompetensiyasi esa shaxsning tilni to'g'ri va samarali qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Shuningdek zamonaviy til o'rganishda ular keng imkoniyatlarga egadir. Sun'iy intellektlar orqali til o'rganishni yanada qulayroq qilish maqsadida bir qancha ilovalar ishlab chiqilgan bo'lib ular: "Duolingo", "Falou" (bir tilni mashqlar orqali qulay va oson o'rganish), "Google translate", "Deepl" (bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish) kabi ta'limga oid samarali platformalar ishga tushirilgan va ular hozirgi kunda barcha til o'ranuvchilarga katta foyda berib, til o'rganishda keng qo'llanilib kelmoqda.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5117-sonli qarorida xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb qilish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'gan qiziqishini oshirish vazifalari belgilangan. Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellekt quyidagi yo'nalishlarda samarali ishlaydi: Nutqni tanish va rivojlantirish foydalanuvchilarning talafuzi innotatsiyasini baholash hamda yaxshilashga yordam beradi. Masalan Siri, Google Asistant, Alexa kabi tizimlar foydalanuvchilarning so'zlash uslubini tushunadi, Elsa Speak esa talafuzni avtomatik ravishda tahlil qilib, tavsiyalar beradi.

Qolaversa SI yani sun'iy intellekt vositalarining til o'rganishda bir qancha afzallilari mavjuddir. Moslashuvchanlik va shxsiylik har bir o'quvchi o'zining darajasiga mos materiallarni o'rganishi mumkin. 24/7 mavjudlik - SI vositalari internet orqali har qanday vaqtda foydalanish imkoniyatini beradi.

Talaffuzni yaxshilash grammatik xatoliklarni to'g'irlash tushuntirish ko'nikmalarini ham bajara oladi, o'quvchining xatolarini aniqlab, ularga asoslangan individual tavsiyalar beradi.

Biroq har narsaning yaxshi va yomon taraflari bo'lganidek SI larning ham bazi cheklovlari mavjuddir. Yani o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanmay qolishi mumkin, sun'iy intellekt bilan o'rganish real hayotiy muloqotni to'liq almashtira olmaydi. Texnik cheklovlar- internet yo'q joyda ulardan foydalanolmaymiz va bazi hollarda yuqori harajatlarga ham sabab bo'lishi mumkin yani bazi ilg'or intellekt platformalardan foydalanish pullik bo'lishi mumkin.

Godwin-Jones(2019) maqolasida SI orqali o'rganish o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini ta'kidlaydi.

Kakulska-Hulme (2021) SI va mobil ta'lim integratsiyasi orqali til o'rganish imkoniyatlari kengayganligini isbotlaydi.

Albatta sun'iy intellekt nafaqat texnologik rivojlanish balki ta'lim yani til o'rganish tizimini ham rivojlantirmoqda shu bilan birga til o'rganuvchilar soni ham

yildan-yilga ortisi kizatilmoqda, bu ham SI texnologiyasining foydali tomoni ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Chappelle tadqiqotiga ko'ra SI asosidagi tizimlar individual o'quv yondashuvlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy til o'rganish jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular biz o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkonini yaratmoqda hamda ta'lim samaradorligini oshirib bu sohada yanada rivojlanishimizga ko'mak bermoqda desam mubolag'a bo'lmaydi. Albatta sun'iy intellektlar hayotimizning ko'p qismini qamrab olmoqda, lekin biz bu bilan cheklanib qolmay o'zimiz shaxsiy rivolanishimizni va miyya faoliyatimiz saviyasini pastga tushirmagan holda o'z ustimida ishlashimiz va SI, AI texnologik vositalaridan oqilona foydalanishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chappelle, C. A. (2020). Artificial intelligence and language learning: The new era of pedagogy. Cambridge University Press.

2. Godwin-Jones, R. (2019). Artificial intelligence and language learning technologies. *Language Learning & Technology*, 23(3).

3. Nordic International University. (2025). Ta'lim sifatini oshirishda tilshunoslik, xorijiy til va adabiyotni o'qitishning zamonaviy metodik yondashuvlari: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar.

4. Kukulska-Hulme, A. (2021). Mobile learning and artificial intelligence in language learning.

5. Ohashi, L., & Hubbard, P. (2024). Generative AI ethics: Emerging principles for language teachers. In *Artificial intelligence in our language learning classrooms* (Chapter 5, p. 100). 1. Chappelle, C. A. (2020). Artificial intelligence and language learning: The new era of pedagogy. Cambridge University Press.